



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 mart holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **639 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **0,7 f.p kamaydi**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **205 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-fevral oyida Viloyatda 273 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61 taga kamaygan.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 39,8 % kamaygan hamda ularning soni 45 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 187 ta (2,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 9579 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Guliston shahrida (31,9 %), Sirdaryo (15,3%), Sayxunobod (8,4 %) va Yangiyer (7,6 %) tuman shaharlarida kuzatilmogda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,
2018 yilning 1 mart holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Sirdaryo viloyati	10309	100,0	9579	100,0
Guliston shaxri	3298	32,0	3058	31,9
Sirdaryo tumani	1621	15,7	1466	15,3
Sayhunobod tumani	820	8,0	808	8,4
Yangiyer shaxri	782	7,6	726	7,6
Guliston tumani	784	7,6	730	7,6
Mirzaobod tumani	749	7,3	709	7,4
Boyout tumani	787	7,6	718	7,5
Xovos tumani	500	4,9	452	4,7
Oqoltin tumani	376	3,6	364	3,8
Sardoba tumani	351	3,4	331	3,5
Shirin shaxri	241	2,3	217	2,3

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 92,9 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 7,1 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,1 f.p. kamaygan.


■ faoliyat ko'rsatayotganlar
 ■ faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,5 % savdoda, 12,0 % sanoatda, 8,7 % qurilishda, 12,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,2 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5,6 % tashish va saqlash, 1,7 % axborot va aloqa, 1,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 26,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-fevral holatiga 273 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 18,3 % ga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Guliston shaxrida (71 ta), Sirdaryo (36 ta), Sayhunobod (29 ta) va Guliston tumanlarida (27 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shaxrida (5 ta), Sardoba (8 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (73 ta), sanoatda (42 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (59 ta) va qurilishda (34 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (3 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (2 ta) va tashish va saqlashda (7 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,4 f.p), savdoda (-0,4 f.p), axborot va aloqada (-0,3 f.p.dan), tashish va saqlashda (-0,1 f.p.), boshqa faoliyat turlarida (-0,3 f.p) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+0,9 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,5 f.p.), qurilishda (+0,6 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,4 f.p.), ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktida

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.03.2018 y.	01.03.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,3	2,7	-1,4
Savdo	26,5	26,9	-0,4
Axborot va aloqa	1,7	2,0	-0,3
Sanoat	12,0	11,1	0,9
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	12,2	11,6	0,5
Qurilish	8,7	8,1	0,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,2	4,8	0,4
Tashish va saqlash	5,6	5,7	-0,1
Boshqa turlari	26,8	27,1	-0,3

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 mart holatiga 8341 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 3092 ta, oilaviy korxonalar – 74 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4797 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 25 tani va boshqalar 353 tani tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 86 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga yoki 19,8 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 64 tasi qo'shma korxonalar, 22 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Sirdaryo tumani 36 ta (41,9 %i), Guliston shaxri 22 ta (25,6 %), Yangiyer shaxri 8 ta (9,3 %) his-salariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xovost tumani 1 ta (1,2 %), Sardoba tumani 1 ta (1,2 %), Guliston tumani 1 ta (1,2 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bi-lan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 mart holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 62 ta (72,1 %), savdoda 9 ta (10,5 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 5 ta (5,8 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 3 ta (3,5 %), boshqa tarmoqlar 3 ta (3,4 %), va qurilishda 4 ta (4,7 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek tashkil etilmaganlar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-fevral oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 237 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga ko'paygan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 3 ta, korxonalar yangi tashkil etilgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 mart holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 7629 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 mart holatiga qaraganda 5,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2613 tasi (34,3 %) Guliston shahriga, 1213 tasi (16,0 %) Sirdaryo, 643 tasi (8,4 %) Sayxunobod tumanlari his-salariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 7629 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2524 tasi (33,1 %) – savdoda, 1127 tasi (14,8 %) - sanoatda, 831 tasi (10,9 %) - qurilishda, 1142 tasi (15,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 499 tasi (6,5 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 528 tasi (6,9 %) - tashish va saqlashda, 158 tasi (2,1 %) - axborot va aloqa sohasida, 75 tasi (1,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 745 tasi (9,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-fevral holatiga 249 ta yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 25,2 foizga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahrida (59 ta), Sirdaryo (33 ta), Sayxunobod (29 ta) va Guliston tumanlarida (25 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shahrida (5 ta), Sardoba (6 ta) tumanida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (42 ta), savdoda (73 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (59 ta) va qurilishda (34 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (3 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (2 ta) hamda tashish va saqlashda (7 ta) tashkil etilgan.



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 mart holatiga 74 tani tashkil etib, ulardan 69 tasi yoki 93,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **32,4** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari ke- simida qaralganda oilaviy korxonalarining 44,9 % yoki 31 tasi sanoat, 20,3 % yoki 14 tasi savdo, 8,7 % yoki 6 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 17,4 % yoki 12 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, hamda 8,7 % yoki 6 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
boshlig'i

Nashr uchun mas'ul: K.Yusupov
(0367) 225-31-00

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan